

BADIIY ADABIYOT TILIDA METAFORANING QO‘LLANILISHI

Baltabaeva Delfuza Baxtiyar qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Qoraqalpog‘iston, O‘zbekiston

E-mail: baltabaevadelfuza@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada, metafora va uning badiiy adabiyotdagi roli tahlil qilindi. Ushbu ishda metaforaning badiiy tasvir vositasi sifatida ishlatilishi o‘rganilgan. Shuningdek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi misollar orqali metafora va taqqoslashning amaliy qo‘llanishi ko‘rsatilgan. Badiiy adabiyotda metafora va taqqoslashning sinkretik usullarda qo‘llanilishi, ya'ni bir gapda ikki tropning birgalikda ishlatilishi adabiyot tilining boyligini va ifodaviy imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, adabiyotda emotsional va tasviriy ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladigan badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida metafora qanday ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Kalit sózlar: metafora, trop, taqqoslash, sinkretizm usuli, badiiy adabiyot.

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy adabiyot tilini o‘rganish uchun lingvopoetika termini ishlatiladi. Lingvopoetika — bu filologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, lingvopoetika doirasida badiiy adabiyot matnlarida badiiy tasvir vositalari, dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlarni o‘rinli va maqsadga muvofiq qo‘llash, matnda ularning estetik effekt berishi va shu maqsadda badiiy adabiyot tilining mazmuniy strukturasida ishtirok etishi mumkin. Shu asosda tadqiqotimiz maqsadini badiiy adabiyot tilidagi badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishini tahlil qilishga qaratdik. Bunda diqqatga sazovor bo‘lgan leksik badiiy tasvir vositalari — troplar, ayniqsa metaforalardir. Yozuvchilar fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, fikrning ixchamligi, badiiyligi va ta’sirchanligini oshirish uchun metaforalarning barcha turlaridan keng foydalanadilar.

Tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha izlanishlar olib borilgan bo‘lsa ham, unga bo‘lgan qiziqishlar ortib yana ham ko‘pchilik olimlarning e’tiborini jalb qilmoqda. Tilshunoslikda metaforaning klassifikatsiyasi bo‘yicha hozirgi kungacha bir necha fikrlar mavjud. Buning sababi, o‘rganilayotgan obyektga olimlarning turlicha yondashuvlari mavjudligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, ko‘pchilik olimlar metaforalarni tilshunoslik (lingvistik) va badiiy adabiyotda qo‘llaniladigan metaforalar³² [8b] deb ikki katta guruhga ajratib o‘rganishni ma’qul ko‘radi.

O‘xshashlik jihatidan — ikkala turda ham ikki predmet yoki hodisaning qandaydir o‘xshash tomonlariga asoslanib, biriga tegishli belgi ikkinchisi bilan ko‘chma ma’noda bog‘lanadi. Ammo ular stilistik, semantik va kommunikativ nuqtayi nazardan bir-biridan farq qiladi.

Lingvistik metaforalar ilmiy va publitsistik uslublarda aloqa vositasi sifatida qo‘llaniladi. Badiiy adabiyotda ishlatiladigan metaforalar esa badiiy obraz

yaratishga xizmat qiladi va muallifning ichki dunyosini hamda u yaratgan asardagi obrazlarga munosabatini ifodalaydi. Bundan tashqari, muallif o'zining individual stilistik metaforalarini yaratib, asar tilini boyitadi. Ular tabiiyligi va yangiligi bilan ajralib turadi.

Metafora — bu til va adabiy san'atda predmet, narsa yoki mavhum tushuncha bilan o'xshashlik asosida ma'no ko'chishini ifodalovchi stilistik vositadir. Metafora yangi tushunchalarni shakllantirish va ularni anglash jarayonida obyektlar o'rtasida taqqoslash yo'li bilan bilim berishda keng qo'llaniladi³³[28b]. Metaforik ifodalar tilda tasviriylilik va tabiiylilikni oshirish, shuningdek, murakkab g'oya va tushunchalarni aniq va obrazli shaklda ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, "hayot daryosi" iborasi hayotning ketma-ket bosqichlarini o'zaro o'xshatib ifodalaydi. Yozuvchilar ushbu tropdan keng foydalanib, obrazlar va ularning xatti-harakatlarini kitobxonlarga aniq va ravshan yetkazishga xizmat qiladi. Haqiqatan ham, bu badiiy tasvir vositasi badiiy adabiyotda keng tarqalgan troplardan biri bo'lib, o'quvchiga obrazlarni va ularning o'zaro munosabatlarini jonli va ta'sirchan tarzda yetkazishga yordam beradi. Shuning uchun ham metaforalar badiiy asarning ta'sirchanligi va obrazlilik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, adabiyotda metafora bilan birga ishlatiladigan stilistik vositalardan biri bu — taqqoslash hisoblanadi. Ko'pchilik adabiyot ixlosmandlari ushbu ikki badiiy tasvir vositasini farqlashda qiyinchiliklarga duch keladi, shuning uchun ularning farqlari haqida ham to'xtalib o'tamiz. Bu ikki tropning adabiyotda o'z o'rnini va ahamiyati bor. Ularning qo'llanishi deyarli bir xil, ammo metaforaning taqqosdan asosiy farqi — taqqosda taqqoslanayotgan predmet, harakat va u nimaga taqqoslanayotganligi aniq ko'rsatiladi³⁴[2b], metaforada esa faqat nimaga o'xshatilayotgani seziladi va tasavvuriy termin bevosita haqiqiy termin o'rnida qo'llanadi, ya'ni ular grammatik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri almashtiriladi.

Shuningdek, qoraqalpoq tilida taqqoslashni yaratishda *-day*, *-dey*, *-tay*, *-tey* qo'shimchalari va *kabi*, *singari*, *misli* kabi so'zlar yordamga keladi. Bundan tashqari, adabiyotimizda bir gapda bir nechta trop birgalikda qo'llanilishi ham mumkinligi va bu "sinkretizm usuli" deb atalishini eslatib o'tish zarur va u asardagi turli effektlarni kuchaytirishga imkon beradi. Ushbu usul orqali ham ko'plab mashhur badiiy asarlar yaratilgan. Quyida Qoraqalpoq xalqining sevimli yozuvchisi T.Qayipbergenovning "Baxtsizlar" romanidan va ingliz yozuvchisi Nathaniel Hawthorne'ning "The Scarlet Letter" asaridan olingan misollarda ikki vositaning farqi va bir gapda birgalikda ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.

Biz hár kimniń shalǵayına ilingen sabaqpız[4,69].

Atızınan bir-eki iyt túyneń shıqqanı ushın hasıldar baǵmandı gúnakarlaw ádillikke jatpaydı[4,85].

-Jáne qaytalayman, qozım. Bizler biylerdiń qas-qabaǵın baǵamız. Olar tınısh bolsa, puqarası tınısh... Puqara degen kim? Eń pás tekshedegiler[4,33].

Bu misollarda biz metaforaning oddiy, kengaytirilgan va zanjirli turlarini ko‘ramiz. Ko‘rib turganingizdek, o‘xshatilayotgan narsa, holat va harakat nimaga o‘xshatilayotgani aniq bilinadi.

Túyeniń qulaǵına minip jıl basılıqqa ilingen tıshqanday, solardıń arqasınan elbası bolıp júripti[4,14].

Jáliy, ayaǵınan jellege túsken shımshıqtay, bir talpındı da qaldı[4,50]

Kisi minezi usas penen tatıw boladı ǵoy, Orınbay báhárgi bulıtay adam [4,55].

Bu misollarda esa hayvonlar, qushlar va tabiat hodisalari insonlarga taqqoslanib, -day, -dey, -tay, -tey qo‘shimchalari yordamida ifodalanganini ko‘ramiz.

Quyida esa yuqorida aytilgan "sinkretizm" usulidagi misollar, ya'ni bir gapda ikkita trop — metafora va taqqos birgalikda ishlatilgan:

Házir ne degen qorlıqlı kún keshiremiz? Qaysı xanǵa ya qaysı ataqlı qalaǵa búrkit bolıp bara ǵoy, bári bir zoń ǵarǵaday kóredi, búlbil bolıp bara ǵoy, bári bir jaw shımshıqtay kóredi[4,26].

Qońıratlı palwan ele pısnaytuǵın emes, dushpanın ańlıǵan qasqırday kózleri ot janıp tur.[4,145].

Endi, Ingliz tilidagi metafora va taqqosga misollarni kórib chiqamiz :

"Nevertheless, vixenly as she looks, many people are seeking, at this very moment, to shelter themselves under the wing of the federal eagle..."

(Shunga qaramasdan, u qanchalik qiyofasi qattiq ko‘rinsa ham, hozirda ko‘p odamlar federal burgut qanoti ostidan boshpana izlayapti) [6,9].

"Let the black flower as it may!"

(Qora gul qanday bo‘lsa ham o‘saversin!) [6,164].

Bu misollarda ingliz tilida *metaforaning* qanday yaratilgani va obrazlarga qanday kuchli emotsional ta’sir berganini ko‘ramiz.

"Dancing up and down like a little elf whenever she hit the scarlet letter"

(Qachonki u olov rangli harfni ursa, kichkina jinchaday sakrab-o‘ynardi) [6,90].

"But the child, unaccustomed to the touch or familiarity of any but her mother, escaped through the open window, and stood on the upper step, looking like a wild tropical bird of rich plumage, ready to take flight into the upper air"

(Ammo bola, onasidan boshqa hech kimning tegishiga yoki yaqinligiga o'rganmaganidan, ochiq derazadan qochib chiqdi va yuqori pillapoyada to'xtab, o'zini osmonga uchishga shay yovvoyi tropik qushday ko'rsatdi) [6,104].

"She stood apart from moral interests, yet close beside them, like a ghost that revisits the familiar fireside, and can no longer make itself seen or felt"

(U axloqiy manfaatlardan uzoq turar, ammo ularga juda yaqin edi — xuddi tanish olov oldiga qaytgan, lekin ko'rinmaydigan yoki sezilmaydigan ruhday) [6,78].

Bu misollarda asar qahramonlari Hester va uning qizi Pearlning obrazlari ko'rsatilib, ular nimaga *taqqoslanayotganini* va unda ham qoraqalpoq tilidagidek *like* ko'makchisi yordamida amalga oshirilganligin ko'ramiz.

"As if there were a withering spell in the sad letter, her beauty, the warmth and richness of her womanhood, departed like fading sunshine, and a gray shadow seemed to fall across her"

(Go'yo qayg'uli harfda qurituvchi sehr bor edi: uning go'zalligi, ayollik iliqligi va boyligi so'nayotgan quyosh nurlari kabi g'oyib bo'ldi, va uning ustiga kulrang soya tushdi) [6,204].

"Continually, indeed, as it stole onward, the streamlet kept up a babble, kind, quiet, soothing, but melancholy, like the voice of a young child that was spending its infancy without playfulness, and knew not how to be merry among sad acquaintance and events of somber hue."

("Haqiqatan ham, irmoq asta-sekin oldinga oqqan sari, u tinmay bir pichirlashni davom ettirar edi — mehribon, sokin, ovutuvchi, ammo g'amgin ohangda — xuddi bolaligi quvonchsiz o'tgan, qanday qilib shod bo'lishni bilmaydigan, g'amgin tanishlar va xiralik hodisalar orasida ulg'aygan yosh bolaning ovozi day.")

[6,179].

Metafora mohiyatan ritorik figura hisoblanib, bir reallik yoki tushunchani unga o'xshash boshqa bir reallik yoki tushuncha orqali aks ettiradi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda metafora inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. J.Lakoff va M.Jonson (1980) ta'kidlaganidek, metafora nafaqat tilni, balki inson fikrlash tizimini ham shakllantiradi³⁵[242b]. Metafora orqali insonlar murakkab va abstrakt hodisalarni real hayotdagi tasavvurlar orqali anglab yetadilar.

Kundalik nutq amaliyotida metaforalardan doimiy ravishda foydalaniladi. Ular murakkab va abstrakt tushunchalarni soddalashtirib, ularni qabul qiluvchiga aniqroq va ta'sirchanroq yetkazish imkonini yaratadi. Shuningdek, og'zaki va yozma nutqda metaforalar orqali hissiyotlar va fikrlar obrazli, emotsional tarzda ifodalanadi. Misol

uchun: "Uning tabassumi quyoshdek porlaydi." Bu misolda kórsak bóladí, quyosh porlashi degan tabiyat hodisasi máno jihatdan kóchib qóllanilgan.

Shunday qilib, metafora tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi, tasviriy va emotsional ta'sir kuchini oshiruvchi kuchli vosita hisoblanadi. U orqali inson tafakkuri murakkab hodisalarni sodda va tushunarli shaklda idrok etadi. Metaforaning nafaqat badiiy, balki ilmiy va kundalik nutqdagi o'rni uning universalligini va hayotiy ahamiyatini ko'rsatadi. Metaforaning nazariy tahlili tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kognitiv fanlar sohalarida muhim ilmiy istiqbollarni ochib beradi. Metafora tilshunoslik va badiiy adabiyotda kuchli stilistik vosita sifatida ishlatiladi. U abstrakt tushunchalarni konkret tasavvurlar orqali ifodalashga imkon beradi va o'quvchiga tasavvur qilishda yordam beradi. Badiiy adabiyotda esa, metafora obraz yaratish va emotsional ta'sirni kuchaytirish uchun keng qo'llaniladi. Qoraqalpoq tilida metaforaning ishlatilishiga oid misollar va ingliz tilidagi badiiy asarlardan olingan metaforalar o'rtasidagi taqqoslash yordamida, bu vositaning til va adabiyotdagi roli aniq ko'rsatilgan. Metafora va taqqoslash birgalikda ishlatilganda, ular sinkretizm usuli orqali asarlarning obrazlilik va ta'sirchanligini oshiradi. Shunday qilib, metafora nafaqat adabiyotda, balki kundalik muloqotda ham o'zgacha tasavvur yaratish va tushunchalarni soddalashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Baltabaeva.D.B. Metaphorical connotation of complex nouns in English language. Magistrlik dissertatsiyasi, Nukus,2023.-B.28.
2. Djonson.M. Lakoff.Dj. Metaphors, we live by. Chicago and London. The University of Chicago Press,1980.-B.242.
3. Кораблева.Г.Н., Горелова.Л.Н. Языковая метафора в художественном тексте(на примере романа Федора Абрамова «Братья и сестры»).Международный научно-исследовательский журнал. Россия.2021.-Б.8
4. Qayırbergenov.T. Бахытсызлар.-Nukus,2019.-B.399.
5. Сидякина.Е.А. Кузема.Т.Б. роль метафоры в Художественном тексте (на материале произведения Дэниела Киза "Flowers for Algernon") e-scio.ru, 2020.-Б.2.
6. Nataniel Hawthorne.The Scarlet Letter A. BOSTON: James R. Osgood and company, Late Ticknor & Fields, and fields, Osgood &Co, 1878.-P.323.